

**Navro'z bayramining tarixi**

***Najmiddinova Sarvara Samariddinovna***

*O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining Farg'ona  
Mintaqaviy filialining Qo'g'irchoq teatr aktyorligi 2-kurs talabasi*

**Ilmiy rahbar: *Ravshanjon Utaganov***

*najimiddinovasarvara@gmail.com*

***Annotatsiya:*** Navro'z azal-azaldan xalqimizning millu bayramidir. Urf-odatlarimizni, xalq o'yinlarimizni kelib chiqishi ham Navro'z bayramiga borib taqaladi. Ushbu maqolada, Navro'z kunning paydo bo'lish tarixi yoritib berilgan.

***Kalit so'zlar;*** Navro'z, Mehrjon, Avesto, arqana kun, Ajam, Oftobxon.

Bahor fasli bilan bog'liq bir qancha bayram kunlari bor. Ammo, bahor fasli o'zining tarovatini aynan, Navro'z milliy bayramimizda namoyon etadi. Go'yoki, Ko'k somsa-yu, sumalaklarning mazzasi mana shu bayram uchun. Mashhur olim Umar Hayyomning «Navro'z znoma» asarida Nav-rozning bayram qilinishi tarixi haqidagi giziqarli ma'lumotlar bayon etilgan bo'lib, unda qadimgi odamlar Navroz kunini qanday belgi-laganliklari va bayramni qay tarzda o'tkazganliklarini tarixiy dalillar bilan bayon qilingan.

«Navro'zning bayram gilinish sababi shundan iboratki, Oftob-ning ikki aylanishi majud, ulardan biri quidagicha: Oftob har 365 kunu kecha-kunduzning tortdan birida Hamal burjining birinchi sagiasida kait ator paytining o'zida yana qayib keladi va har Aytishlaricha birinchi Ajam podshosi Qayumars\* podshoh bo'lgandan keyin yilning kunlari va oylariga nom berishga hamda odamlar bilsin deb yilnoma joriy qilishga qaror qilgan. U tongda oftob

Hamal burjining avalgi daqiqasiga kirgan kunni aniqlab, ajam mubadlarini yig'ib yil hisobini shu paydan boshlashni buyurdi. Mubadlar yig'ildilar va yil hisobini shu paydan boshlashni joriy qildilar.

Mubadlar aytishicha, buyuk va muborak Izid 12 farishta yaradi, ulardan 4 tasini ahramanlardan qo'riqlash uchun osmonga yubordi, 4 tasini ahramanlarni

Qof tog'idan o'tkazmaslik uchun jahonning to'rt burchagiga yubordi. 4 ta farishta esa osmon va yerda yurib, odamlardan ahramanlarni haydab turishni buyurdi. Ularning aytishicha, Izid taolo nurdan oftobni yaratib u bilan osmonu yerni parvarish qilgan va oftobning nurlari hamda keltiradigan foydasi hamma narsaga tegsin deb, oftobga o'z joyidan qo'zg'alishni buyurganda, u Hamalning boshidan chiqib, zulmat nurdan ayrildi, kecha va kunduz paydo bo'ldi. Shundan song 1460-yil o'tgach, oftob o'sha joyning o'ziga o'sha kun, o'sha daqiqada qaytib keldi'. Oftob Hamaldan chiqqan paytida va u Zuhal ham, Mushtariy ham boshqa yulduzlar bilan Izid taolo hukmi bo'yicha turganlarida jahonning holati ozgardi va dunyo hamda taqdirga mos ravishda yangi narsalar paydo boldi. Ajam podshohlari shu payda oftobni ulug'lash uchun, shuningdek, har kim bu kunni topaolmasligini hisobga olib, uni belgilab qo'ydilar va bayram joriy etdilar. Qayumars yil hisobining boshlanishi sifatida bu kunni joriy etganda, 365 kun ichida oftobning bir aylanib chiqishi roy beradigan quyosh yilini har biri 30 kundan iborat 12 oyga boldi va ularni buyuk va muborak Izid dunyoga yuborgan 12 farishta nomi bilan atadi. So'ngra u 365 kunu kecha-kunduzning choragidan iborat ulug' davni «ulug' yil» deb atadi va uni 4 bo'lakka bo'ldi. Katta yilning 4 bo'lagi o'tganda katta Navro'z bo'ladi va dunyoning holati yangilanadi.»<sup>1</sup> «Navroznoma»da 12 oy 12 farishta nomi bilan atalganini aytib o'tgan edik. Quyida keltirilgan oylarning har biri asarda muhim xususiyatlari bilan ko'rsatib o'tilgan: Favardin oyi - «favardin» pahlaviycha so'z bo'lib, uning ma'nosi aynan jannatlar bolib, bu oy o'simliklar o'sishining boshlanishidir. Bu oy Hamal burjiga oid. Binobarin, oying boshidan to'xtirigacha oftob shu burjda bo'ladi.

Urdbixshiy oyi - bu oyda dunyo ozining ko'karishi ila jannatmonanddir, urd pahlaviy tilida «monand» degani. Oftob bu oyda haqiqiy aylanishi bo'yicha Sarv burjida bo'ladi. Bu oy bahorning o'rtasidir. Xurdad oyi - odamlarni bug'doy, arpa va mevalar bilan boqadi.

---

<sup>1</sup> Umar Hayyom. Navro'znoma. Toshkent - 1990 y. - B. 10-12

Oftob bu oyda Javzo burjida bo'ladi. Tir oyi - bu oyda bug'doy, arpa va boshga narsalamni taqsim qiladilar. Oftobning aji pasaya boshlaydi va Saraton burjida bo'ladi. Murdod oyi - tuproq berdi, ya'ni unda yetilgan meva va sabzavotlarni berdi, bu oyda havo tuproq to zoniga oxshaydi. Bu oy yozning o'rtasidir. Oftob Asad burjida bo'ladi. Shahrivar oyi - bu daromad oyidir, ya'ni podshohlarning daromadlari shu oyga to'g'ri keladi. Oftob Sunbulada bo'ladi. Mehr oyi - bu insolar orasidagi dostlik oyidir. Odamlar pishgan barcha mevalar va boshqa narsalar hamda o'zlarining ulushlarini birga baham ko'radilar. Oftob Mezonda bo'ladi. Kuzning boshlanishidir, Obon oyi - bu oy boshlanganda suv ko'payadi va odamlar ekinlarini sug'oradilar. Oftob Aqrabda bo'ladi. Ozar oyi - pahlaviy tilida ozar «olov» deganidir. Bu oyda ob-havo soviy boshlaydi va olovga muhtojlik paydo bo'ladi. Oftob bu oyda Qavs burjida bo'ladi. Ko'karsidan yiroqdir. Oftob bu oyda Zuhan xonasida, dalvning jadi bilan tutash yerida bo'ladi. Isfandarmuz oyi - isfand pahlaviy tilida «meva»ni anglatadi, ya'ni bu oyda mevali daraxt va o'simliklar ko'kara boshlaydi. Oftob bu oyda oxirgi Hut burjiga yetib keladi. Taxt Kayumarsdan Xu-shangga undan Taxtamurasga, so'ngra uning ukasi Jamshidga o'tdi.

Umuman olganda, Navruz bayrami tarixiy bayram. Albatta, har bir yosh o'z tarixidan xabardor bo'lishi va qadrlashi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Madrimov B. X. O'zbek musiqa tarixi. Toshkent-2018.
2. Иброхимов О. Макам и космос. —Ташкент: Санъат, 2010.
3. Иброхимов О. Фергана-Ташкентские маками. -Ташкент: Медиа Ланд, 2006, 175 с.
4. Иброхимов О. O'zbek xalq musiqa ijodi. 1-qism (metodik tavsiyalar) -Toshkent: O'ZR XT o'quv metodik markazi, 1994, 62-b.
5. Иброхимов О. Мақом va макон. -Toshkent: Movarounnahr, 1996, 96-b.
6. История узбекской советской музыки. Вип. 1. -Ташкент: изд. им. Г.Гуляма, 1972, 210 с.